

# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANKLARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI YURITISH VA BUXGALTERIYA ISHLARINI TASHKIL QILISH AMALIYOTI

*Gulmuratov Ro'ziboy Chariyevich*

*O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti*

## **Annotatsiya**

Mazkur tezisdagi O'zbekiston Respublikasida bank tizimida buxgalteriya hisobini tashkil etish masalalari ko'rib chiqiladi. Buxgalteriya hisobi yuritish qoidalari, buxgalteriya apparatining strukturasi berilgan, bank operatsiyalari hisobini yuritish va ularni nazorat qilish qoidalari ko'rsatilgan, mijozlarga xizmat ko'rsatish hamda hujjatlar aylanishini yo'lga qo'yish usullari to'g'risida ko'rsatmalar berilgan. Bundan tashqari buxgalteriya hisobotini tuzish hamda xalqaro andozalarga asoslangan boshqa bank operatsiyalarini bajarish hajmlari va tartibi belgilab qo'yilgan Banklarda buxgalteriya ishini tashkil etish asoslari korxonalar buxgalteriya hisobiga o'xshash bo'lsada, ba'zi bir o'ziga xos xususiyatlari ham mavjud.

**Kalit so'zlar:** buxgalteriya hisobi, aktiv va passiv schotlar, ikki yoqlama yozuv, buxgalteriya hisobotlari, xalqaro standartlar, hisob-kitob, kassa, valyuta, kredit

## **Kirish**

Respublikada hozirgi kunda Markaziy bank va tijorat banklaridan tashkil topgan bank tizimi faoliyat ko'rsatmoqda. Banklarning barcha operatsiyalari jahon tajribasidan foydalangan holda bajarilmoqda. Banklarda buxgalteriya hisobini yuritish va hisobotlarni tayyorlash Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlariga (MHXS) moslashtirib borilmoqda. Banklarda buxgalteriya hisobini yuritilishi, hisob-operatsion ishlarining to'g'ri tashkil etilishi va samarali nazoratning joriy etilishi bank vazifalarini to'liq bajarishini, investorlar, kreditorlar, hukumat muassasalari, vazirliklar va mijozlar, shuningdek, bank aksiyadorlari uchun zarur axborotlar olish va qarorlar qabul qilish imkoniyatini ta'minlaydi. Banklarda moliyaviy resurslarni shakllantirish va ularni joylashtirish jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlarni hisob varaqlarda aks ettirish va buxgalteriya hisobotlarini tuzish bank buxgalteriya hisobining predmeti hisoblanadi. O'zbekiston bank tizimida buxgalteriya hisobini tashkil etish va amalga oshirish to'liq avtomatlashtirilgan elektron to'lov tizimiga o'tkazilgan, mazkur vazifalarni amalga oshirish Markaziy bank va uning hududiy Bosh boshqarmalari tarkibida tashkil etilgan. Axborotlashtirish bosh markazi va uning hududiy bo'linmalari zimmasiga yuklatilgan, undan foydalanuvchilarni o'z vaqtida to'liq hamda aniq moliyaviy va boshqa buxgalteriya axboroti bilan ta'minlashdan iboratdir

## **Mavzuning dolzarbligi**

Ma'lumki, buxgalteriya hisobi xo'jalik subyektlari va ularning faoliyati to'g'risidagi moliyaviy axborot tizimidir. Shu bilan birga buxgalteriya hisobi moliyaviy axborotlarni aniqlash, rasmiylashtirish va tekshirish hamda o'tkazish jarayoni ham bo'lib hisoblanadi. Iqtisodiyotda faoliyat yurituvchi xo'jalik subyektlari bir-biri bilan o'zaro hisob-kitoblarni aynan tijorat banklari orqali amalga oshiradilar. Bu operatsiyalar korxonada buxgalteriyasi bilan birga bank buxgalteriya hisobida ham o'z ifadasini topadi. O'zbekistonda buxgalteriya hisobini to'g'ri tashkil qilinishiga alohida e'tibor qaratiladi. Chunki, birinchidan, tijorat banklarining operatsiyalarni o'tkazish va ularning buxgalteriya hisobini rasmiy jihatdan olib borishiga qo'yiladigan barcha talablarga rioya etilishi mamlakat bank tizimining sifati va ishonchligini ta'minlaydi. Ikkinchidan, buxgalteriya hisobidagi xatoliklar natijasida banklarga jalb etilgan omonatchilar va mulkdorlar mablag'larini yo'qotish riskini bartaraf etish yoki uni eng past darajaga tushirish yo'li bilan bank operatsiyalarining daromadlilikini maqbul darajada bo'lishiga erishish mumkin bo'ladi.

Demak, bank buxgalteriya hisobi ma'lumotlari bank haqidagi aniq ma'lumotlarni olish nuqtayi nazaridan Markaziy bank, Soliq nazorati idoralari, barcha tijorat banklari va mijozlar, bank aksiyadorlari, mavjud va bo'lg'usi investorlar uchun juda zarurdir. Bu ma'lumotlar asosida bankning likvidligi, yo'l qo'yayotgan xatari, rezervlari, kredit portfeli holatini belgilash imkoniyati yaratiladi. Umumiy qilib aytganda, buxgalteriya hisobini tashkil qilishda hisob ma'lumotlari nafaqat ichki, balki yuqori boshqaruv uchun zarurligini hisobga olish bilan birga, tashqi foydalanuvchilar ehtiyoji ham e'tiborga olinishi kerak.

Bank xodimlarining ish joylari shunday joylashtirilgan bo'lishi kerakki, bunda mijozlar va boshqa begona shaxslarning bankning muhrlari, shtamlari, hujjatlari va blanklarini olishlariga imkon bo'lmasligi lozim. Xodim mehnat ta'tiliga chiqqan, kasal bo'lib qolgan yoki boshqa sabablarga ko'ra ishda bo'lmagan hollarda unga biriktirilgan hisobvaraqlar hamda uning vazifalari muhr va shtamplar bilan birgalikda boshqa xodimga topshiriladi va bu haqda maxsus daftarda tegishli yozuvlar qayd etiladi. Bosh buxgalter zimmasiga umumiy nazoratni tashkil etish hamda har kuni buxgalteriya va kassa ishlarining barcha bo'g'inlarida o'rnatilgan tartibga amal qilinishini kuzatib borish yuklatiladi. SHuningdek, bank bosh buxgalteriga bosh va yordamchi kitoblarda operatsiyalarni qayd etish, tegishli buxgalteriya hisobi hisobotlarini dasturiy ravishda tuzish ishlariga rahbarlik qilish yuklatiladi. Bank bosh buxgalteri ishda bo'lmagan vaqtda, ushbu vazifalar bank rahbarining buyrug'iga ko'ra uning o'pinbosapiga topshiriladi. Mijozlarning bank xodimlarining xatti-harakatlari ustidan shikoyatlari hamda boshqa murojaatlari amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq qabul qilinadi va ko'rib chiqiladi. Murojaat qilish tartibi e'lonlar osib qo'yish yo'li bilan mijozlarga ma'lum qilinishi lozim. 60 Bank rahbari buxgalteriya ishi holatini umumiy kuzatish bilan bir qatorda balans va boshqa

hisobotlarni o‘z vaqtida tuzilishini tekshirib borishi, mijozlarga o‘z vaqtida va sifatli xizmat ko‘rsatilishini muntazam nazorat qilib turishi shart.

**Xulosa** Har bir bank buxgalteriya ishi va buxgalteriya hisobini yuritish eng oxirgi zamonaviy, yangi komp’yuter texnikasi qo‘llaniladigan sharoitga moslangan bo‘lishi lozim. Bankdan chiqayotgan hujjatlarni tegishli tarzda rasmiylashtirish va buning natijasida ulardan foydalanishni osonlashtirish, shuningdek, boshqa banklarda ushbu hujjatlar bilan operatsiyalar bajarilishini hamda ular tomonidan xizmat ko‘rsatuvchi mijozlarning operatsiyalari hisobini yuritishni belgilangan talablarga muvofiqlashtirishni tashkil etish lozim. Banklarda buxgalteriya hisobini tashkil etishda hisob ishlari hajmini aniqlab olish, buxgalteriya xodimlari sonini, ular o‘rtasida hisob ishlari taqsimotini, qo‘llaniladigan hisob shaklini, hisob ishlarida hisoblash texnikalaridan foydalanishini belgilab olish kerak bo‘ladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘grisida”gi Qonuni -T.2016y
2. O‘zbekiston Respublikasining “Markaziy bank to‘g‘risida”gi Qonuni -T.2019y
3. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 12 maydagi 2020-2025yilda mo‘ljallangan “O‘zbekiston Respublikasi bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-5992sonli Farmoni
4. Z.A.Umarov Banklarda buxgalteriya hisobi Toshkent-2021y
5. Jumagulov A.E. “Stages of development of the legislation on investment funds in Uzbekistan” Herald pedagogiki. Nauka i Praktyka 1.5 (2021). <https://www.naab.uz> (O‘zbekiston Respublikasi Buxgalterlar va auditorlar milliy asosiatsiyasining rasmiy sayti)
6. <https://www.stat.uz> (O‘zbekiston Respublikasi Statistika qumitasining rasmiy sayti)
7. [www.cbu.uz](http://www.cbu.uz)
8. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
9. [www.scinedirect.com](http://www.scinedirect.com)